






I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021 yil yanvar-sentabr oylarida Buxoro viloyatining ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YAHM) ning hajmi 27 419,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020 yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 6,8 foizga o'sdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAHMning shakllanishida Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 5,3 foizga etdi.



Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		2020 yil yanvar-sentabrga nisbatan, % da
		2020 yil yanvar-sentabr	2021 yil yanvar-sentabr	
	I. YAHM	22 008,2	27 419,8	106,8
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	21 309,9	26 413,3	106,8
	Mahsulotlarga sof soliqlar	698,3	1 006,5	107,2
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	21 309,9	26 413,3	106,8
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	9 609,8	12 247,1	105,4
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	5 429,6	6 376,9	102,7
	sanoat	3 638,1	4 123,1	99,7
	qurilish	1 791,5	2 253,8	108,9
	Xizmatlar	6 270,5	7 789,3	112,3
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 517,3	1 887,7	111,6

		Mld. so'm		2020 yil yanvar-sentabrga nisbatan, % da
		2020 yil yanvar-sentabr	2021 yil yanvar-sentabr	
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 149,8	1 546,4	122,7
	boshqa xizmat tarmoqlari	3 603,4	4 355,2	109,2

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 14 006,1 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,4 foizga yuqoridir.



Yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,3 foizini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,7 foizini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 46,4 foizni, sanoat tarmog‘ining ulushi 15,6 foizni, qurilish sohasida 8,5 foizni va xizmatlar sohasi 29,5 foizni tashkil qildi.




**Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

		2020 yil	2021 yil
	I. YAHM	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	96,8	96,3
	Mahsulotlarga sof soliqlar	3,2	3,7
	II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	45,1	46,4
	Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	25,5	24,1
	sanoat	17,1	15,6
	qurilish	8,4	8,5
	Xizmatlar	29,4	29,5
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	7,1	7,1
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,4	5,9
	boshqa xizmat tarmoqlari	16,9	16,5




Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2020- yil




2021- yil



YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 105,4 foiz (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi (46,4 foiz), sanoatda 99,7 foiz (15,6 foiz), qurilishda 108,9 foiz (8,5 foiz), xizmatlar sohasida 112,3 foizni (29,5 foiz) tashkil etdi.


Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2021 yil yanvar-sentabrga YAHM deflyatori indeksi 2020 yil yanvar-sentabrdagi narxlarga nisbatan 116,7 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 120,9 foiz va qurilishda 115,5 foiz qayd etildi.



Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



Yanvar-sentabr oylarida YAHMda kichik biznesning ulushi (jamiga nisbatan %da)



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 76,8 % ni tashkil qildi (2020- yilning yanvar-sentabrda – 76,0 %).

YAHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan izohlanadi.